4. qayta baxolashdan keyingi taqkoslama buxgalteriya balansini to'zing.

5 masala

“Penmeyker” kompaniyasi o'z asosiy vositalari to'g'risidagi quyidagi axborotga ega.

Hisobvaraq raqami	qoldiq
0110	235000
0120	485000
0220	190000
0130	160000
0230	87000
0150	42000
0250	16000
0140	68000
0240	21000

Kompaniya ishlab chiqarish asbob-uskunalarini uchun yillar soni summasi usulini, ofis asbob-uskunalarini va mebeli uchun kamayib boruvchi qoldiq usuli va xizmat qilish muddati 30 yil va kolddik qiymati 80000 sum bo'lgan bino uchun tunri hisobdan chiqarish usulini qo'llaydi. Asbob-uskunaning xizmat qilish muddati qoldiq qiymatisiz 10 yilga belgilangan. Ofis asbob-uskunalarini va mebelning xizmat qilish muddati 5 yil mebelidan qoldiq qiymati yo'q, ofis asbob-uskunalarining qoldiq qiymati 6000 sum.

1. “penmeyker” kompaniyasi asosiy vositalarining sof balans qiymati qanday?

2. “Penmeyker” kompaniyasi asosiy vositalar buyicha kerakli moliyaviy ochib berishlarning tayyorlang.

Mavzu: Nomoddiy aktivlar hisobi

1-masala

1. “Maustrep” kompaniyasi yangi turdagi sichkon to'tadigan qopqon ishlab

chiqardi. Bu kompaniya kopkon ishlab chiqarish bilan shugullanadi va sotish uchun muljallangan chngi turdagi kopkonni sotiladigan mahsulotlar katorida ishlab chiqarishga tayyorgarlik kuryapti. Buxgalteriya hisob-kitlblari buyicha Yangi turdagi kopkonni ishlab chiqarishga ketadigan xarajatlar xodimloarga ish haqi, materiallar, sinov va xokazolarni kushib hisoblanganda bir yilda 120000ni tashkil qilar eqan. Buni kompaniyaning buxgalteriya yozuvlarida qanday aks ettirish mumkin?

2. Uch yildan keyin “Maustrep” krmpaniyasi yangi kopkonga olingan patentni “Kritter Kecher” kompaniyasiga sotilgan. “Kritter Kecher” kompaniyasi patent uchun 160 ming tuladi. Patentning amal qilish muddati 20 yil. Bu operatsiya “Kritter Kecher” kompaniyasining buxgalteriya yozuvlarida qanday aks ettiriladi. Biror bir sharx talab etiladmi, agar talab etilsa ular qanday sharxlar?

3. Ikki yil o'tgandan so'ng “Rodent Riders” nomli yangi kompaniya “Kritter Kecher” kompaniyasidan bk patentni 200 minga sotishni surada “Kritter Kecher” kompaniyasidan bu patentni sotmaslikka qaror qildi, chunki bu ularning eng muvaffakiyatli chiqqan mahsuloti edi. “Kritter Kecher” kompaniyasiga bu patentning bozor qiymatidagi o'zgarishininig qanday aks ettirishi kerak?

2-Masala.

Buxgalteriya balansida ko'rsatilgan patent “Umid” kompaniyasi tomonidan 2009 yilning 31 dekbrida sotib olingan. Ushbu patent 2008 yilning 31 dekabrda berilgan edi. Patent qiymati xukukiy xizmat qilish davri ichida xarajatlarga hisobdan chiqarilishi lozim.

1. Yillik amortizatsiya me'yori quyidagini tashkil qiladi.
2. Amortizatsiya hisoblash buyicha yillik jurnal yozuvlari.
3. 2009 yilning 31 dekabr xolatiga nomoddiy aktivlarning qiymati tashkil qiladi:

Dastlabki qiymat

-Hisoblangan amortizatsiya

-Balans qiymati

Mavzu: Investitsiyalar hisobi

1- Masala

Investitsiyalar foizlarining hisob kitobi.

15 aprelda kompaniya 14% yillik foiz stavka bilan 200000 sumlik investitsiya qildi.

IZOX:

Foizni hisoblash uchun 365 kunlik yil olinadi.

Foizlarning qanday summasi 30 aprelda aprel uchun hisoblanadi?

Foizlarning qanday summasi 31 mayda may uchun hisoblanadi?

2-Masala

“Galina” kompaniyasining ishlari muvofakiyatli kechmokda va unda

investitsiyalar kiritish uchun bush mablag'lar bor. Quyidagi operatsiyalarni aks ettiring:

2 oktyabr 2008 yilda emissiyadan bir qancha vaqt o'tgandan keyin kimmatli kogos olingan edi. Uning nominal qiymati 1000000, "Galina" bu summa bilan birga 500000 summada kimmatli kogosda hisoblangan foizlar va 25000 brokerga komission haqlarini kushgan xolda tuladi. Jami to'lanadigan summa – 1075000. Kimmatbaxo kogosning to'lanadigan muddati 2009 yil 1 sentyabr.

A) kimmatli kogos qisqa muddtlimi yoki uzoq muddatli hisoblanadimi?

B) kompniya "Galina" kompaniyasi o'zining joriy investitsilarining haqiqiy bozor qiymati buyicha, uzoq muddatli investitsilarning – sotib olish qiymati buyicha aks ettiradi. 31 dekabr 2008 yilda bu kimmatli kogosning bozor kiy mati 930000 bo'lgan. Agar lozim bo'lsa, bozor qiymatini o'zgarishini aks ettirish uchun provodka o'tkazing.

V) "Galina" kimmatli kogosni 2009 yil 30 martda sotdi va uning hisobiga 1300000 oldi. "Galina" tegishli yul bilan sotish sanapsiga 350000 bo'lsan foizlarni hisobladi va ular zaridordan olingan summa ichiga kiritlgan. Sotish buyicha operatsiyani aniqlang.

G) 2009 yil 1 aprelda "Galina" bu pullarni bir qismini boshqa investitsiya uchun ishlatdi. Bu nominal qiymat 1000000 bo'lgan kimmatli kogos edi. Birok "galina" sotuvchiga 1190000 tuladi, chunki bu kimmatli kogos chiqarilgan keyin foiz stavkalari tushgan edi va yangi kimmatli kogos buyicha ancha pastrok foiz stavkalari taqlif qilinar edi. Xarid bilan bog'liq boshqa xarajatlar bo'lmadi, va xarid o'z ichiga hisoblangan foizlarni olmas edi, chunki sotuvchi sotish kunida muntazam foiz to'lovlarni olgan edi. Kimmatli kogosni to'lash muddati 2009 yil 1 dekabr. Bu kimmatli kogosninig kogosning xaridini aks ettiring.

D) bu investitsiya qisqa muddatli yoki uzoq muddatli investitsiyalariga karaydimi?

E) Agar "Galina" foiz stavkalarini o'zgarishlarini ko'tayotgan bo'lsa, va kimmatli kogosni keyingi olti oy davomida foyda olish uchsun sotmokchi bo'lsa, bu investitsiya qisqa muddatli yoki uzoq muddatli bo'ladimi?

J) Agar kimmatli kogos uzoq muddatli deb tasniflansa, va uning bozor qiymati 2009 yil 31 dekabrda 1400000 ni tashkil qilayotgan bo'lsa, bu o'zgarish jurnallarida qanday hisob qilinadi?

Z) Kimmatli kogos buyicha ustamaning yozilishi bilan bog'liq oylik operatsiyani aks ettiring.

2009 yil 31 dekbrga bo'lgan kimmatli kogosning balans qiymati qanday?

2009 yil 1 dekbrga bo'lgan kimmatli kogosning balans qiymati qanday?

I) "Galina" obligatsiyani to'lash muddatigacha sotmaydi. To'lash kunida tegishli yul bilan 150000 miqdorda foizlar hisoblangan edi, biroq olinmagan. Foizlar to'lash summasining olinishini aks ettiring.

"Keys-stadi" ko'rinishidagi masala

Mol yetkazib beruvchilardan xom ashyo olindi
Schyot fakturadagi summa 10 000 000 so'm

QQS 2 000 000 so'm
savdo chegirtmasi 5%

Talab qilinadi.

- Xom ashyoning haqiqiy qiymatini hisoblang
- Ushbu summalarni tegishli schyotlarda qayd qiling
- Mol yetkazib beruvchi bilan hisoblashishni amalga oshiring.

4-Mavzu. Investitsiyalar hisobi.

1-masala

AVS kompaniyasining moliyaviy hisobotlarida quyidagi xolatlardan qaysi birlarining bog'liq tomonlari to'g'risidagi ma'lumot shaklida ma'nosining ochish kerakligining aniqlang va o'z javobingizni tushintiring.

Mazmuni. Bog'liq tomonlar-ochib berishlar

Xa/nima uchun yo'q/nima uchun

1. B kompaniyaning 30% AVS

kompaniyaga tegishli bo'lib,

AVS kompaniyasi mahsulotning

10%ni yil davomida sotib oldi.

2. V kompaniyasi AVS kompaniyasi

Aktsiyalarning 51%iga ega. AVS

kompaniyasi mahsulotning 1%ni

yil davomida sotib oldi.

3. AVS kompaniyasi V kompaniyasi

mahsulotning 1/2%ni sotib oldi

4. AVS kompaniyasiprezidentining turmush

o'rtog'i AVS kompaniyasining mahsulotining

1/2%ni yil davomida sotib oldi.

5. AVS kompaniyasi direktorlaridan

Bittasining katta o'g'li AVS

Kompaniyasiga xom ashe zaxiralarining

10%ni sotdi va AVS kompaniyasi yil

Yil davomida sotib oldi.

2-masala

BOG'LIQ TOMONLARNI ANIQLASH

Quyidagi sanab o'tilgan o'zaro munosaabatlarining qaysilari A kompaniyasi uchun №08 va №14 standartlarga muvofiq bog'liq tomonli ekanligini aniqlang va xar bir javobni tushuntiring.

Mazmuni bog'liq tomonlari

Xa/nima uchun yo'q/nima uchun

1. A kompaniyasi direktorlari kengashining a'zosi

2. A kompaniyasining bosh buxgalterii

3. A kompaniya katta mablag' tolga bank raisi
4. B kompaniyasi, Ushbu kompaniyaning 30% A kompaniyasiga tegishli
5. A kompaniyasi aksiyalarning 2 % ga ega bo'lgan va ayrim xallarda A kompaniya mahsulotini sotib oladigan Moliya vaziri
6. V kompaniyasi A kompaniyasining 51% aksiyasiga ega
7. A kompaniyas prezidentining turmush o'rtog'i
8. A kompaniyasining direktorlaridan biring katta o'g'li
9. A kompaniyasining doimiy xaridori, uning asosiy xaridori hisoblanadi.
- 10.

“Keys-stadi” ko'rinishidagi masala

Mol yetkazib beruvchilardan tovarlar qabul qilindi. Schyot-fakturada 10 000 000 so'm va transport-tayyorlov harajati –600 000 so'm qabul qilish jarayonida 1 500 000 so'mlik tovar kam chiqqanligi aniqlandi va tegishli tijorat dalolatnomasi tuzildi.

Talab qilinadi.

- Qabul qilingan TMZ haqiqiy tannarxini hisoblang.
 - Mol yetkazib beruvchilarga beriladigan da'vo summasini hisoblab chiqing.
 - Ushbu da'vo bo'yicha tegishli hujjatni tuzing.
- Qabul qilingan tovarlar va da'vo summasini tegishli schyotlarda

5-Mavzu. Materiallar hisobi

Masala.

Maqsad - materiallar omboridagi ro'yxatdan o'tkazish qaydnomalarini rasmiylashtirish tartibini o'rganish.

Vazifa - belgilangan tartibda balansdagi mablag'lar ro'yxatini tuzish.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.

“Tong” OAJ ning ehtiyot qismlari saqlanadigan omborda bosh muxandis - V.A Pulatov, hisobchi- T.P.SHaripov, mexanik - I.I. Rasulov tarkibidagi komissiya ombor mudiri A.I. Mamatov ishtirokida omborda ehtiyot qismlarni borligi tekshirilgan. Tekshirish natijasida chetga chiqishlar aniqlangan (qiyoslash qaydnomasiga qarang).

1. Amalga oshirgan ro'yxatdan o'tkazish xujjatlari bo'yicha OAJ rahbari qanday qaror qabo'l qilish kerakligini ko'rsating.

Qiyoslash qaydnomasi

Ehtiyot qismlarning nomi	CHiqish narx	Mavjudligi aniqlangan		Hisob ma'lumotlari bo'yicha mavjud		Natija			

		Soni	Sum ma so'm	Soni	Summa so'm	Soni	Summa so'm	Soni	Summa so'm
1.Korbyuratorlar	2300	5		5					
	1200	3		4					
2.Yarim o'qlar	0	2		3					
3.Radiatorlar	3200	6		5					
4.Tormoz	0								
kalotkalari	8000	6		6					
5.Faralar		3		3					
6.Oldingi oyna	1122	10		12					
7.Shestirnalari	2	8		7					
8.Tamplari	6790	10		11					
9.Filtrlar	0								
10.Praketskalar	3976								
(oraga	6								
solinadigan	3800	15		17					
narsalar)	5	10		9					
11.Porshinlar	4666	7		9					
12.Yon tomon	0								
oynalari									
	2000								
	2700								
	8								
	1206								
	0								

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar

Mablag'larning haqiqiy mavjudligini hisob ma'lumotlaridan farqlanishi quyidagi sabablarga bog'liq:

1) Radiatorlar, shesternalar, filtrlar va yon tomon oynalari ortiqchaligi hisobot oyidai korxona xodimlari tomonidan xarid qilinganligi haqidagi hkjjatlar o'z vaqtida taqdim yetilmaganligidan kelib chiqqan.

2) Kalodkalarining kamomadi, hali ularning hujjatlarini to'liq rasmiylashtirmasdan turib berilganligidan kelib chiqqan.

3) Ombor mudiri tomplari va pomlarning kamomadi sabablarini izohlab berolmagan.

Topshiriq- ro'yxatdan o'tkazish natijalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish.

Masala.

Maqsad- buxgalteriya hisobi registrlarining mazmunini o'rganish.

Vazifa - joriy yilning 1- apreldagi schyotlar bo'yicha qoldiq (salıdo) asosida bosh daftarga sintetik schyotni ochish.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar

Joriy yilning 1- apreldagi buxgalteriya hisob schyotlari qoldig'i

Schyotning nomi	Summa (ming so'mda)	
	Debet	Kredit
0001- "Asosiy vositalar"	100000	
0002- "Asosiy vositalarni eskirishisi"		11273
0004- "Nomoddiy aktivlar"	8754	
0005- "Nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi"		900
1000- "Materiallar"	18950	
2010- "Asosiy ishlab chiqarish"	32980	
2810- "Ombordagi tayyor mahsulot "	300	
2910- "Ombordagi tavarlar"	2425	
5010- "Kassa"	494	
5110- "Hisob-kitob schyoti"	44980	
6010- "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar"		31300
4010- "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar"	1128	
6240 "Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar "		5560
6510. "Sug'urta bo'yicha to'lovlar"		5710
6710- "Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisob-kitoblar "		21080
6970- "Hisobdor shaxslarga berilgan qarz"		251
4220- "Xizmat safari uchun berilgan avans"	746	
8700- "Taqsimlanmagan foyda"		12841
8300- "Ustav kapitali"		89309
6820- "Qisqa muddatli qazlar "		26730
8520- "Rezerv kapitali "		5803
Jami	210757	210757

1. Joriy yilning 1- apreldagi schyotlar bo'yicha qoldiq (salıdo) asosida bosh daftarga sintetik schyotni oching.

2-topshiriq.

Xo'jalik operatsiyalari asosida joriy yilning apreli uchun ro'yxatga olish qayd daftarini tuzing, sintetik schyotlarda bu xo'jalik operatsiyalari aks ettiring va ayrim schyotlar bo'yicha analitik schyotlar oching.

Masalani bajarish uchun ma'lumotlar.

Joriy yilning aprelidagi xo'jalik operatsiyalari

Operatsiyalar nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Summa (ming so'mda)
1 "Lochin" korxonasidan qurilish bloklari kelib tushgan	Dona	250	
2.Hisob-kitob schyotidan olingan materiallar uchun mol yetkazib beruvchi schyoti to'landi			2100
3 Asosiy ishlab chiqarishga berildi: SHifer Bo'yoq Bloklar jami	dona kg dona	20 5 17	
4.Asosiy ishlab chiqarishga sarflangan elektr energiyasi uchun shahar elektr tarmog'i schyoti to'lashga qabul qilindi			18000
5. Asosiy ishlab chikarish xodimlariga ish xaki xisoblandi			20000
6. Korxona xodimlari ish haqlaridan daromad solig'i ushlab qolindi		x	26000
7. Yagona ijtimoiy to'lovga ajratma hisoblandi (summa mustaqil ravishda aniqlanadi)			
8. Hisob-kitob schyotidan byudjetga xodimlarning ish haqlaridan daromad solig'i bo'yicha qarzdorlik to'ladi.		x	
9. Hisob-schyotidan kassaga chek bilan pul olindi.		x	22000
10. Kassadandan ish haqi berilgan		x	18000
11.Ta'minatchi O.M. Tojievga material xarid qilishga hisobdorlik summasi berildi		x	460
12. Ta'minatchi O.M. Tojiev tomonidan xarid qilingan bo'yoq omborga topshirildi	kg	4	200
13. Ta'minatchi O.M. Tojiev tomonidan hisobdorlik summasining qoldig'i kassaga qaytarildi		x	260

14 Asosiy ishlab chiqarishdagi asosiy vositalarga eskirish hisoblandi		x	1200
15. Hisob-kitob schyotidan qarzdorlikni to'landi: "Lochin" korxonasiga SHahar elektr energiya tarmog'iga jami.		x x	2403 2000 4403
16. Hisob-kitob schyotidan bankning qisqa muddatli kredit foizlari hisoblab o'tkazildi		x	1000
17. Hisob-kitob schyotidan yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha qarzdorlik summasi to'landi		x	900
18. Hisob-kitob schyotiga xaridorlardan pul kelib tushdi		x	1280
Jami			

1000- "Materiallar" schyotining analitik schyotlari bo'yicha qoldiqlar

Materialning nomi	O'lchov birligi	Miqdori	Narxi (so'm)	Summa (so'm)
SHifer	dona	400	11800	4720000
Bo'yoq	kg	35	5000	175000
Bloklar	dona	100	60000	600000
Jami	x	x	x	5495000

"Keys-stadi" ko'rinishidagi masala

Quyidagi ma'lumotlar asosida sub'ektda sarflar bo'yicha kassaning jamg'arma smetasini tayyorlang:

No	Oylar	Mehnat haqi	Materiallarni sotib olish	Ishlab chiqarish ustama sarflari	Kapital quyilmani moliyalashtirish	Dividentlarni to'lash
1	Yanvar	1000000	580000	1300000	-	-
2	Fevral	1300000	600000	1500000	-	-
3	Mart	1400000	600000	1500000	2000000	800000

Bundan tashqari:

a. 30 mart kuni 1 mln so'mlik kreditni to'lash

v. har oyda transport tashkilotlariga 30000 so'm to'lash (xizmatlar kelgusi oyda ko'rsatiladi).

d. mol yetkazib beruvchilarga qarzar quyidagi tartibda to'lanadi:

- 50 % kreditor qarzi paydo bo'lgan vaqtida
- 50 % kreditor qarzi keyingi oyda
- e. mehnat haqi hisoblangan oyda to'lanadi.

- Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar va shartlarga asoslangan holda o'zining mablag'ining yetishi yoki kredit olish zarurligini aniqlang.

- Agarda o'zining mablag'i yetishmasa olinishi zarur bo'lgan kredit summasini aniqlang.

6-Mavzu. Mehnat va unga haq to'lash hisobi

“Keys-stadi” ko'rinishidagi masala

Kompaniyaning marketing bo'limi bo'yicha faoliyatining na-tijasini, yalpi foydani chetlanishini aniqlang.

E s l a t m a: Marketing bo'limi har bir tovar bo'yicha sotish hajmi va birlik mahsulotning bahosi bo'yicha javobgar.

Sotilgan mahsulotlarning hajmi, tannarxi, bahosi va yalpi foyda bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud.

№	K o' r s a t k i c h l a r	Haqiqatda	Reja	Farqi
1	Birlik mahsulot bo'yicha yalpi foyda so'm	200	180	- 20
2	Sotilgan mahsulotning hajmi, dona	15000	20000	- 5000
3	Sotishdan olingan yalpi foyda, so'm	30000000	39600000	- 9600000
4	Birlik mahsulotning sotish bahosi, so'm	2000	1980	200
5	Sotilgan mahsulotning tannarxi, so'm	1800	1800	-

V. Quyidagi omillarning yalpi foydani hajmiga ta'sirini tahlil qiling:

a. Sotilgan mahsulotning hajmi

v. Mahsulotning sotish bahosi

d. Birlik mahsulotga to'g'ri kelgan foyda

D. Yalpi foydani hajmi bo'yicha chetga chiqishlarning sabablarini va marketing bo'limining javobgarlik darajasini aniqlang.

7-Mavzu. Xarajatlari hisobi

7- “Keys-stadi” ko'rinishidagi masala

Kontsernning mamlakatimiz hududlarida joylashgan, lekin yuridik shaxs huquqiga ega bo'lmagan bir nechta filiallari mavjud:

1). A filialining faoliyatini yorituvchi ko'rsatkichlar:

- mahsulotni sotish hajmi – 50000 dona

- mahsulotning rejadagi bahosi - 500 so'm
- me'yordagi tannarxi - 400 so'm
- haqiqatda sotilgan - 60000 dona
- sotishdan olingan daromad - 30000000 so'm

Talab qilinadi:

a. A filiali bo'yicha foydaning umumiy o'zgarishini aniqlang

v. Foydaning o'zgarishiga ayrim omillarning ta'sirini aniqlang

2). V filiali uch turdagi mahsulot ishlab chiqaradi. Uning xo'jalik faoliyatining natijalarini yoritadigan quyidagi ko'rsatkichlar mavjud:

№	Mahsulotlar turi	Reja bo'yicha		Haqiqatda	
		Sotish smetasi, dona	Foydaning miqdori, so'm	Sotilgan mahsulot	Foydaning miqdori, so'm
1	A	40000	10000	45000	10200
2	V	100000	100000	90000	95000
3	D	150000	180000	130000	150000
	jami	290000	97930	265000	107580

Talab qilinadi:

A. Mahsulotlarni sotishdan olingan yalpi foydaning quyidagi omillarning ta'sirida o'zgarishi aniqlansin:

a. sotilgan mahsulotlar tarkibining o'zgarishi

v. sotilgan mahsulotlar bahosining o'zgarishi

d. olingan foydaning ulushining o'zgarishi

8-Mavzu. Mahsulot, tovar (ish, xizmat) lar va ularni sotish hisobi

8- "Keys-stadi" ko'rinishidagi masala

Kompaniya o'zining faoliyatida asosan ikki turdagi (A va V) mahsulot ishlab chiqaradi. Ishlab chiqarishning umumiy hajmining 50% A mahsulot va 25% V mahsulot tashkil qiladi va A mahsulotning yillik hajmi 1000 dona va V mahsulotning yillik hajmi esa 500 donani tashkil qiladi. Har bir mahsulot birligining tasdiqlangan me'yorlari bo'yicha hisoblangan tannarxi bo'yicha quyidagi ko'rsatkichlar mavjud:

№	Xarajatlarning moddalari	A	V	Jami
1	Xom ashyo va material sarflari	1800	1200	3000
2	O'zida ishlab chiqarilgan yarimfabrikatlar, transfert bahoda	3100	600	3700
3	Ishlab chiqarishdagi ishchilarning mehnat haqi	700	1300	2000
4	Ijtimoiy muhofaza jamg'armasiga ajratma	280	520	800
5	Ishlab chiqarishning ustama xarajatlari	1500	2800	4300
6	Me'yoriy xarajatlarning jami	7380	6420	13800

7	Sotish bahosi (q.q.s. qo'shilmagan holda)	8000	6800	14800
8	Ishlab chiqarishdan olingan foyda (birlik mahsulot bo'yicha)	620	380	1000

Talab qilinadi:

A. Rejada ko'rsatilgan hajmda mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarish bilan sotish hajmining teng bo'lishi sharti asosida ishlab chiqarishdan kutilayotgan foyda hajmini hisoblab chiqing.

V. +uyidagilarga:

a. jami me'yoriy xarajatlar

v. sotilgan mahsulotning bahosiga nisbatan xarajatlarning ay-rim moddalari bo'yicha va mahsulotlarning ayrim turi bo'yicha birlik mahsulotning me'yoriy tannarxini tahlil qiling.

D. Kompaniyaning umumiy foydasiga mahsulot turlarining ulushi bo'yicha va yuqorida keltirilgan shartlarga asosan mahsulot haj-mining me'yoriy tannarxining ta'sirini tahlil qiling.

E. A va V mahsulot bo'yicha foyda darajasini oshirish uchun kompaniyaning rahbariga taklif bildirishnoma yozing. Ushbu taklifda muammoni yechishning har xil usullarini:

a. o'tgan yilga nisbatan materiallarni sotib olish bahosining o'zgarishi

v. kelgusida materiallarni sotib olish siyosatini belgilash va boshqalarga asosan isbotlang va ko'rsatib bering.

9-Mavzu. Kapital, fondlar va moliyaviy natijalar hisobi

9- "Keys-stadi" ko'rinishidagi masala

Kompaniyaning sopol idishlarini ishlab chiqaruvchi tsexi ikki turdagi (A va V) mahsulot ishlab chiqaradi. Ushbu tsexda 50 ta ishchi haftasiga 40 soatdan ishlaydi. A mahsuloti uchun tas-diqlangan me'yoriy mehnat haqi donasiga 20 so'm va V mahsuloti uchun 30 so'm. Me'yor bo'yicha tsexning ishchilariga soatiga 6 so'm hi-soblanadi. Belgilangan soatdan ortiqcha ishlagani uchun birinchi ikki soatiga 1,5 barobar va ishsiz turib qolganligi uchun esa tas-diqlangan ta'rif darajasining 2/3 qismi to'lanadi. Kompaniya faoliyatining uch oyi ichida quyidagi ko'rsatkichlar mavjud:

№	Ko'rsatkichlar	Oylar		
		I	II	III
1	Ishlab chiqarilgan mahsulotning hajmi, ming dona - A mahsulot - V mahsulot	30.0 20.0	30.5 19.5	40.0 20.5
2	Ishlab chiqarishdagi ishchilarga to'langan mehnat haqi, ming so'm	1317.0	1238.0	1596.0
3	Asosiy ishlab chiqarishda ishchilarning			

	ishlagan ish vaqti, soat	200000	198000	236000
4	Ishlab chiqarishdagi ishchilarga to'langan vaqtlarning miqdori, soat:			
	- asosiy ishlab chiqarishdagi	190000	180000	206000
	- ortiqcha ishlagan vaqti	5000	3000	10000
	- ishsiz turgan vaqti	5000	15000	20000

Talab qilinadi:

A. a. Ikkinchi va uchinchi oylarda birinchi oyga nisbatan mehnat sarflari bo'yicha chetga chiqish hisoblansin.

v. Birinchi, ikkinchi va uchinchi oylardagi me'yorga nisbatan chetga chiqishlar hisoblansin.

d. Umumiy chetga chiqish va uning smetadagi foydaga ta'sirini sharxlang.

V. Mehnat haqining darajasi bo'yicha chetga chiqish, uning ko'pa-yishi, bekor vaqtiga to'lovlar va ortiqcha ishlagan soatiga to'lov-larni hisoblab chiqing.

D. Mehnat unumdorligi bo'yicha chetga chiqishni hisoblang. Ushbu chetga chiqishning sabablarini ko'rsating. Mehnat unumdorligi bo'yicha chetga chiqishning smetadagi foydaning hajmiga ta'sirini aniqlang.

10-Mavzu. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisobi

1- masala

BUXGALTERIYA HISOBİ FOYDASI VA SOLIQQA TORTILADIGAN FOYDA. FOYDA SOLIG'I BUYICHA BUXGALTERIYA O'TKAZMALARI

Valentina Konstrakshn kompaniyasi faoliyatining birinchi yil natijalari moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda ko'rsatilgan; ular soliq tulaguncha bo'lgan foyda summasi bilan ifodalangan.

Quyidagi moliyaviy hisobot buyicha voyda va soliq solinadigan fotsda orasidagi farq ko'rsatilagn. Bu farq sanalardagi farq natijasidir. Buxgalteriya maqsadlaridagi amortizatsiya 120000 so'mni tashkil etadi.soliq maqsadlaridagi amortizatsiya 150000 so'mni tashkil etadi.

Talab qilinadi:

Valentina Konstrakshn kompaniyasining soliq deklaratsiyasi aks ettiriladigan soliqqa tortiladigan summani hisoblang.

Agar kompaniya uchun soliq stavkasi 40%ni tashkil qilsa, soliqqa tortiladigan foyda asosida xozirgivaqtda to'lanadigan fotsda solig'ini hisoblang.

Agar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdagi soliq to'languncha bo'lgan foyda summasi kompaniya xozirgi vaqtda tulaydigan soliq summasi bo'lganxolda, kompaniya tulaydigan fotsda solig'ini hisoblang. "Valentina Konstrakshn" kompaniyasi kelgusi davrlarga muddatini o'zaytirgan soliqni hisoblang. Bu 20va 3 savollarning javoblari orasidagi farqdir.

Kompaniya foyda solig'ini aks ettiradigan jurnalbuxgalteriya yozuvlarini o'tkazing.

Foyda solig'i to'languncha bo'lagm foydadan boshlab, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning to'zing.

2-Masala

1. 2009 yil 15 martda “Ruslan Strongamz” kurilish kompaniyasi 2010 yil 15 martda 500000 p.b.da dividendlar to’lashi haqida e’lon qiladi.

A) Dividendlar e’lon qilinishi paytidagi xo’jalik muomalasini aks ettiring.

B) Dividendlar to’lanishi vaqtiga bo’lgan xudalik muomalasini aks ettiring.

2. “Sergey Rizot” kompaniyasi ularga mijozlar olib keladigan avtobus xaydovchilariga mijozlardan olingan tushumning 5%ni miqdorida vositachilik to’lovlar beradi. Bu mijozlardan olingan tushum avgustda 220000 p.b.ni tashkil qiladi. Kompaniya xaydovchilarga to’lovni keyingi oyga amalga oshiradi. 31 avgustda bo’lgan vositachilik to’lovlra buyicha majburiyatlarning hisobga olish uchun kerakli xo’jalik muomalalarini aks ettiring.

3. “Компьютер Vis” компьютер kompaniyasi o’zining eng yaxshi sotuvchisi, Olegni u mijozlar bilan uchrashishi mumkin bo’lgan seminarga yuboradi, va xizmat safari xarajatlariga avans sifatida bunga 20000 p.b. beradi. Oleg seminarlarda vaqtni yaxshi o’tkazishni xush kuradi, u xamma berilgan pullarni va yana chuntagidan 2000 so’mni sarif qiladi. Ishga u oyining oxirgi ish kunida keldi, uning boshi qattiq og’riyapti, biroq kompaniya prezidenti u bilan shu zaxotiyoyq uchrashmoqchi. Prezident Olegga xamma sarflangan pullarni to’lashga rozi, chunki uning ish safari ko’p tavarlarni sotishga yordan berdi. Biroq uning xamma xarajatlarining tekshirish va kompesatsiyani berishga vaqt kolmayapti, chunki Oleg ishdan vaqtlitiroq ketib, bosh ogrigidan aspirin olmokchi. Avansni xarajatlarni va Olegga tegishli kompensatsiyani to’zatish buyicha xo’jalik muomalasini aks ettiring.

3-masala

2010 yil oktyabr oy uchun AVS savdo kompaniyasi ma’muriy xodimlarga 6200 miqdorda, sotuvchilarga 12000 miqdorda ish haqi hisobladi; ushlab kolishlar daromad solig’i buyicha 1450 ijtimoiy fondga 2,5%- 455ni tashkil qiladi.

Vazifa

Buxgalteriya xo’jjatlarida quyidagilarni aks ettirish:

Ma’muriy va savdo xodimlarini ish haqini hisoblashlari.

Ish haqidan ushlamlarni.

Ish haqining to’lanishini.

4-masala

Maishiy texnika ishlab chiqaruvchi “Kelli” sanoat kompaniyasi o’z faoliyatining 2010 yil 1 yanvarda boshladi. Ishlab chiqarish faoliyatining bir oyi uchun kompaniya quyidagi xarajatlarni qiladi:

Mol yetkazib beruvchidan schet-faktura buyicha 140000 p.b.ga xom ashyo va materiallar sotib olingan, plyus 28000 QQS summasi;

Ijar buyicha xarajatdlar 10000ni tashkil qiladi, plyus 2000 QQS summasi;

Telefonda foydalanish xarajatlari 2500ni plyus 500 QQS summasi;

1500 summada hisob varaq buyicha kamunal xizmatlar uchun to’lovi plyus 300 QQS; xususiy shaxsdan 4000 p.b.da yordamchi materiallar sotib olingan.

Kushimcha axborot:

Yanvarda 800 birlik mahsulot ishlab chiqarilgan edi;
Yanvar oxirida xamma mahsulotlar bir birligi uchun 300 baxoda sotilgan edi;
Sotish daromadi 240000.

Vazifa:

Buxgalteriya provodkalarini aks ettirish.

To'lanishi yoki byudjetdan koplanishi lozim bo'lgan QQS summasini hisoblash.

5-masala

Konserva chiqaradigan "Kliff" kompaniyasi yangi konservatsiya qiladigan mashina sotib olish uchun bankdan 2500000 sum miqdorida kredit oldi. Kreditni taminlash maqsadida bank mashinani o'zining va "Kliff" kompaniyasining tavar moddiy zaxirasini ushlab kolish xukukini talab qildi. Vekselni to'lash muddati-5 yil, yillik foiz stavka 20%. Xar yili kompaniya 500000 sum asaosiy summa va yil uchun foizlarni to'lashi lozim. Bank bilan bo'lgan bitimda, kompaniyaning joriy likvidligi koeffitsienti 2.0*dan pastga tushsa, kredit darhol tuliq qaytarilib beriladi, degan shart mavjud. Kredit 2008 yil 10 noyabrda olingan edi.

Bitim to'zish davriga "Kliff" kompaniyasi 25000000 sumli k joriy aktivlarga, 15000000 sum uzoq muddatli va boshqa aktivlarga, 12000000 sumlik joriy majburiyatlar va 18000000 sumlik uzoq muddatli va boshqa majburiyatlarga ega edi.

2008 yil 31 dekabrda buxgalteriya balansida bu qarzning qanday summasi joriy majburiyat deb aks ettirilishi kerak?

2008 yil 31 dekabrda balansida bu qarzning qanday summasi uzoq muddatli majburiyat deb aks ettirilishi kerak?

Bu qarz buyicha qanday ochib berishlarni qilish kerak va bu ochib berishlar qaysi schetlarga tegishli?

Tushintirish xatini yozing.

Kompaniya foydali bo'lganligi va unda ko'p pul mablag'lari bo'lganligi sababli, kompaniya rahbariyati yirik investitsiyalarni uzoq muddatli kimmatli kogozlarga quyish yuli bilan foydani yanada oshirishga qaror qildi.

2009 yil iyunida "Kliff" kompaniyasining bosh buxgalteri ushbu investitsiyalar natijasida joriy aktivlar 20000000 sum, uzoq muddatli va boka aktivlar 24000000 sum, joriy majburiyatlar 12800000 sum, uzoq muddatli va boshqa majburiyatlar 21000000 sum bo'lganligini aniqladi.

O'tkazilgan moliyaviy ko'rsatkichlar taxlilidan keyin bosh buxgalter provodka kiritish kerakmi?

Agar kerak bo'lsa qanday provodka?

"Keys-stadi" ko'rinishidagi masala

Kelgusi oyda sotish hajmining oshishi kutilmoqda. Ushbu mahsulotga bo'lgan mavsumiy talab sotish hajmining 6,5 tonnagacha o'sish imkoniyatini yaratadi, natijada qo'shimcha ombor maydoniga bo'lgan talabni yuzaga chiqaradi. Demak, omborxona uchun ijara haqi yana 100000 so'mga ko'payadi, har bir mahsulot bo'yicha o'zgaruvchan xarajat 5% ga oshadi. Magazin orqali o'ralgan

holda shaybalarni ayrim sotish natijasida uning sotish bahosi 10% ga oshadi. Yuqori rentabellik darajasidagi mahsulotning tarkibi gayka tomoniga o'zgaradi, natijada sotiladigan mahsulotlarning turlari quyidagi ko'rinishda bo'ladi: boltlar 4000 kg, gaykalar 1750 kg va shaybalar 750 kg.

Talab qilinadi:

A. Mavsumiy talabning o'sish sharoitida zararsizlik nuqtasini va xavfsizlik chegarasini (% da) hisoblang.

V. Firmaning yangi sharoitdagi foydasini hisoblang va uning o'z-garishiga ta'sir qiladigan omillarni aniqlang.

11-Mavzu. Moliyaviy hisobot

11- “Keys-stadi” ko'rinishidagi masala

Mol yetkazib beruvchilardan tovarlar qabul qilindi. Schyot-fakturada 10 000 000 so'm va transport-tayyorlov harajati –600 000 so'm qabul qilish jarayonida 1 500 000 so'mlik tovar kam chiqqanligi aniqlandi va tegishli tijorat dalolatnomasi tuzildi.

Talab qilinadi.

- Qabul qilingan TMZ haqiqiy tannarxini hisoblang.
- Mol yetkazib beruvchilarga beriladigan da'vo summasini hisoblab chiqing.
- Ushbu da'vo bo'yicha tegishli hujjatni tuzing.
- Qabul qilingan tovarlar va da'vo summasini tegishli schyotlarda aks ettiring.

Takrorlash uchun savollar:

- Tovar moddiy zaxiralari va ularning mohiyati nimada?
- Tovar moddiy zaxiralari ahamiyati nimada?
- Tovar – moddiy zaxiralari kandy turkumlanadi?
- Tovar moddiy zaxiralari xisobining kandy vazifalari mavjud?

12-Mavzu. Boshqaruv hisobini tashkil etish

12- “Keys-stadi” ko'rinishidagi masala

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt bir turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va quyidagi ko'rsatkichlar mavjud:

- yil davomida sotilgan mahsulotning hajmi 1000 dona
- sotilgan mahsulotning bahosi 3000 so'm
- ishlab chiqarilgan mahsulotga sarflangan o'zgaruvchan xarajat-lar 2 mln so'm
- doimiy xarajatlar 500 ming so'm

Talab qilinadi:

A. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmining kritik nuqtasini va zararsizlik nuqtasidagi ishlab chiqarish hajmini aniqlang.

V. Jami ishlab chiqarilgan mahsulot va mahsulotning birligi bo'yicha olinadigan marjinal va sof daromadni hisoblab chiqing.

D. Foyda (rentabellik darajasi) grafigini tuzing. Sof foyda va sof zararining maydonini ko'rsating.

E. Xavfsizlik hududidan kelib chiqqan holda ishlab chiqarish hajmining diapazoni (chegarasi)ni aniqlang.

13-Mavzu. Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish

13- “Keys-stadi” ko'rinishidagi masala

Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha sub'ektda quyidagi ma'lumotlar mavjud (birlik mahsulotga):

Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda
Asosiy harajatlar	15000	14500
Ishlab chiqarish ustama harajatlari	5000	5000
Mahsulot hajmi	1500	1600

Talab qilinadi:

1. Jami mahsulotning rejadagi tannarhini hisoblang.
2. Jami mahsulotning haqiqiy tannarhini hisoblang.
3. Ushbu summalarga tegishli schyotlarda qayd qiling.

14- “Keys-stadi” ko'rinishidagi masala

Tuzilgan shartnomaga muvofiq xaridorlarga bajarilgan ish topshirildi.

- Kontraktda ko'rsatilgan qiymat 4 500 000
- Ishning rejadagi tannarxi 3 000 000
- Ishning haqiqiy tannarxi (tejalgan 3%) _____?
- Muomala natijasi bo'yicha olingan foyda yoki zarar summasi _____?

Vazifa:

1. Sotilgan mahsulotning tannarxi schyotlarda qayd qilinsin.
2. Sotilgan mahsulotdan olingan daromad tegishli schyotlarda aks ettirilsin.
3. QQS aks ettirilsin.
4. Moliyaviy natija aniqlansin.